



TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA XALQ OG'ZAKI IJODINING O'RNI

PhD. N.Mahmudova
Qarshi DU

Abstract:

The article examines the genres of folklore and its influence on the field of education, the essence of education, and ways to introduce them to school lessons more widely.

Annotatsiya:

Maqolada xalq og'zaki ijodi janrlari va uning ta'lism sohasiga ta'siri masalalari, tarbiya mohiyati va maktab darslariga kengroq olib kirish yo'llari ko'rib chiqilgan.

Zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologitalardan foydalangan holda o'qitishning ilg'or uslublarini joriy etish yo'li bilan, o'sib kelayotgan yosh avlodni chet tillarga o'qitish, shu tillarda erkin so'zlasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish hamda buning negizida, ularning jahon sivilizatsiyasi yutuqlari hamda dunyo axborot resurslaridan keng ko'lamda foydalanishlari, xalqaro hamkorlik va muloqotni rivojlantirishlari uchun shart – sharoit va imkoniyatlar yaratish maqsadida: Respublikamiz hududida chet tillarni, asosan, ingliz tilini o'rganish umumta'lim maktablarining birinchi sinflaridan o'yin tarzidagi darslar va og'zaki nutq darslari shaklida, ikkinchi sinfdan boshlab esa, alifbo, o'qish va grammatikani o'zlashtirishdan bosqichma-bosqich boshlanadi.

Til o'rganish kishilik jamiyatida bag'oyat muhim sohalardan hisoblanadi. Aloqa vositasi bo'lmish tilni tabiiy muhitda yoki uyushgan holda, darsda amaliy egallash mumkin. Til hodisalarga oid bilimlar esa nazariy jihatdan o'rganiladi. Xalqaro munosabatlar avj olgan zamonamizda tillarni bilish, ko'p tillilik ulkan ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi hududida tahsil oladigan o'quvchilar va talabalar odatda uch til o'rganadilar. Ushbu tillar ta'lism nazariyasida maxsus nomlar bilan yuritiladi: ona tili, rus tili va chet tili.

Ma'lumki til kishi hamda millatlarning bir-birlarini yaqindan bilishlari, hurmat e'zozlashlari, do'stlashishlarida tengi yo'q omil, bebafo vositadir.

Hozirgi davr ta'limi takomillashtirishda pedagoglarimiz xalq og'zaki ijodidan, jumladan bolalar ertaklaridan, o'z tarbiyaviy va ijodiy ishlarida, darslarda, keng foydalanayaptilar.

Bugungi mustaqil hayotimizda og'zaki ijod namunalari kitob holida nashr qilinmoqda. Boshqa millat vakillari va elatlarining madaniyati va adabiyotiga qiziqish, chet el tajribalaridan o'rganish bugungi ta'lism jarayonida ijobjiy samara bermoqda. O'quvchilarda dunyo madaniyatiga qiziqish, chet tillarni hatto birinchi sinflardan o'rganib borishga intilish kuchaymoqda. Hamisha xalq bir-biridan o'rganadi, bir- biriga ergashadi. Shu uchun ham xalqlarning yashash va urf- odatlarida bir-biriga o'xshash tomonlar bor. Garchi til xususiyatlari, etnografik sharoiti, turlicha bo'lsada, umumiy g'oya yo'nalishda mushtaraklik bor.

Xalq og'zaki ijodi va uning ta'lism – tarbiya sohasiga ta'siri masalalari, ya'ni xalq ertaklarining tarbiya mohiyatini o'rganish va uni maktab darslariga kengroq olib kirish yo'lida o'zgacha burilish va tiklanish ishlari ancha rivojlandi.

Ta'lism-tarbiya jarayonida ertaklardan foydalanish uchun ijodkorlik ko'rsatib butun bilim va mahoratini ishga solib harakat qilishi zarur.

Har bir o'quvchiga individual yondoshgan holda (ham) dars jarayonida mavzuni qiziqarli va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan tomonlarini hisobga olishi kerak. Buning uchun turli yangi texnik vositalar, ko'rgazmali qurollar yordamida obruzli, ifodali, personaj tovushlariga taqlid qilib o'qish, hikoya qilib berish, yangi so'zlar bilan tanishtirish, o'z navbatida o'quvchilardan ertakni aniq, burro talaffuz bilan o'qib, kichik dialoglarni rollarga bo'lib aytib berishlari, yuqori sinflar esa mazmunini hikoya qilishlari va bularning hammasi o'qituvchi tomonidan kuzatilib borilishi maqsadga muvofiqdir. 6-7 sinf o'quvchilariga ertaklarning mazmuni va asosiy g'oyasini yaxshiroq idrok etib, puhtaroq tushunib olishlari uchun og'zaki nutqni o'stirishga doir suratlar chizishni tavsiya etish, ularda tasavvur,



tafakkur, xotirani o'stirish g'oyatda muhimdir. Shuningdek, har bir o'quvchi o'zi chizgan rasmlarni so'zlab berishi orqali og'zaki nutqi o'stirishga erishiladi.

Xalq pedagogikasining ajoyib dastlabki va muvaffaqiyatli vositasi – ertaklarning tarbiyaviy qudrati, uning inson hayotini go'zallashtirishi, ma'naviy boyitishi, uni kamolotning eng yuksak pog'onalariga yetkazishi haqida A.S.Pushkin shunday degan edi: "Kechqurun ertaklar tinglab, bu bilan o'tmishdagi la'nati tarbiyamning kamchiliklarini to'ldiraman. Ertaklar qanday go'zal! Har qaysisi bir doston"¹.

O'quvchilar uchun juda foydali bo'lган janrlardan yana biri bu – tez aytishlardir.

Tez aytishlar bolalar talaffuzidagi nuqsonlarni yo'qotishidan tashqari, ular orasidagi aql va so'zamollik, chechanlik kabi xush sifatlarni tarbiyalaydi. Shu ma'noda tez aytishlar tovush va so'zlar ustidagi poetik-mantiqiy mashqlar hisoblanadi. Tez aytishlar nutq tovushlarning uyg'unligiga asoslangan janr bo'lib, o'xshash tovushli so'zlar yoki so'z birikmalarining bir nafasda shiddatli aytilishi jarayonida u yoki bu tovush, u yoki bu so'z talaffuzida chalg'ish yo tutulishi natijasida voqe bo'luchchi ma'no o'zgarishi negizida yuzaga keladi:

Zungenbrecher:

1 Zwischen zwei Zwetschenzweigen zwitschern zwei Schwalben.

2 Wiener Waschfrauen waschen mit weißem Wasser weiße Wäsche.

Ko'rib chiqqan birinchi tez aytishimizda *zw-schw* tovushlari, keyingisida *ss-sch* tovushlari alliteratsiyasi asosi. Tez aytish uchun muddao husni motivni ifodalovchi motivga aylangan, alliteratsiyasi rivojiga turtki beruvchi o'zak ham shu iborada. Muddao husni, aslini olganda, ham she'riy, ham nasriy tez aytishlarda tugun vazifasini o'taydi. Ular motivnigina emas, qaysi tovushning alliteratsiyasiga solinishi, qaysi so'zni takrorlashni belgilovchi vosita sifatida so'z yoki so'z birikma shak lida namoyon bo'ladi:

*Fischers Fritz fischt frische Fische,
frische Fische fischt Fischers Fritz.*

Bu tez aytishda *fisch – frisch* so'zlari muddao husni bo'lib, sch undoshining alliteratsiyasiga zamin yaratgan va baliqchining yangi balig'i haqida ma'lumotni tashigan. Tez aytishlar shu xildagi rang –barang alliteratsiyalari, omonimlar, omofonlar, omograflar, paronimlar va tavtagoliyalarga asoslangan ma'no tovlanishlari bilan pedagoglar va bolalar e'tiborini qozonib kelmoqda. Ayniqsa tez aytishlar fonetik jihatdan katta ahamiyatga ega. O'quvchilar talaffuzidagi kamchiliklarni bartaraf etishda fonetik mashqlarni bajarish orqali erishiladi. Mashq deganda, muayyan tarzda tashkil etiladigan va biron amalni qayta-qayta bajarishga, uni egallab olishga hamda bajarish usullarini takomillashtirishga yo'naltirilgan aqliy harakat tushuniladi².

Chet tili o'qitish metodikasida mashqlar nihoyatda keng muhokama qilingan, lekin bu munozarabop o'rnlari ko'p metodik muammodir. Ilmiy izlanishlar va pedagogik voqelik ma'lumotlariga tayanib, fonetik mashqlar sistemasini quyidagi nazariy mulohazalar doirasida tuzish va o'tkazish tavsiya etiladi:

1. Talaffuz qiyinchiliklarini inobatga olib, fonetik mashqlarni artikulatsion pozitsion va akustik mashqlarga bo'lish mumkin.
2. Nutqiy muloqotning ikki tomonlama jarayonligini nazarga olsak, fonetik mashqlar retseptiv va reproduktiv toifalardan iboratligi ma'lum bo'ladi.
3. Nutqiy ko'nikmalarning hosil bo'lish bosqichlarida shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi va tokomillashtiruvchi fonetik mashqlar bajariladi.

Bugungi kun chet tili o'quvchilarining vazifasi, darslarida xalq og'zaki ijodi namunalaridan unumli foydalanishdir. Tokim, bolalar o'z xalq meroslari bilan birga o'rganayotgan chet tillarida so'zlashayotgan xalq hayot tarzi, madaniy merosini qiyoslab, bilib borishlari kelajakda komil inson bo'lib ulg'ayishlariga poydevor bo'lsa ajab emas.

Adabiyotlar:

¹ A.S.Pushkin. Ertaklar haqida "O'zbek folklori" II kitob, _T.1941. 11-bet.

² И.Д.Салистра. Очерки методов обучения иностранном языкам. Система упражнений и система занятий. _М.: Высшая школа, 1966, 40 стр.х



1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori "Chet tillarni o'rghanish tizimini yanada takomllashtireish chora-tadbirlari to'g'risida" Ma'rifat gaz. № 99 soni.
2. J.Jamolov Chet tili o'qitish metodikasi. Tosh."O'qituvchi" 1996 y.
3. K.Imomov, T.Mirzayev, B.Sarimsoqov, O.Safarov. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. Tosh."O'qituvchi" 1990 y.
4. O'rta maktabda chet tili o'qitish kursi. Prof. V.S.Setlin tahriri ostida. Tosh. "O'qituvchi" 1978 y